



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-sentabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 60,3 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 113,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (77,0 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 18,3 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 9,3 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 15,9 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,9 % ga o'sishi kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,6 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,7 % ni tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal 4,3 marta, chaqiq tosh 35,5 % ga, neft qazib olish 4,0 % ga, tabiiy gaz 1,7 % ga oshgan boʻlsa, gazli kondensat 0,9 % ga pasaygan.





Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-sentabr	2021-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	465,6	484,1	18,5
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	26 364,3	26 819,0	454,7
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	555,1	550,2	-4,9
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	302,0	409,4	107,3
Shag'al, <i>tonna</i>	1 224,0	5 323,0	4 099,0



Ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar -sentabr oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 46,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,0 % ini tashkil etdi.







**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 10,0 % ni (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 4,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali 14,4 % (18,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 24,8 % (20,3 %) va quyi texnologiyali 27,8 % (28,5 %) ni tashkil etdi.

2020-yil
yanvar- sentabr, % da



2021-yil
yanvar- sentabr, % da




yuqori texnologiyali
 quyi texnologiyali
 o'rta-yuqori texnologiyali
 o'rta-quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 23,2 % (2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,8 % (2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 145,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % (2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % (2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,6 % (2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 26,4 ming tonna mis sim (2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 56,0 % ga ko'paygan), 28,8 ming tn paxta iplari (55,9 %.), 14,5 ming tn trikotaj yoki qo'lda to'qilgan matolar (41,0 %), 407,4 ming dona sovutgich va muzlatgichlar (25,3 %), tamaki mahsulotlari 1286,0 mln dona (26,7%) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-sentabr	2021-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	211 046,0	197 838,0	-13 208,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	13 425,1	1 593,6	-11 831,5
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	12 892,3	10 229,5	-2 662,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	88,5	29,3	-59,2
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	325 153,0	407 416,0	82 263,0




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



2020-yil,
% da



2021-yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,0 % ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 81,7 % ni tashkil qildi.







Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-sentabr	2021-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	229,4	249,0	19,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8 921,0	8 965,6	44,6
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	805 076,0	610 741,0	-194 335,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-sentabr	2021-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	51,8	66,4	14,6
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	317,1	314,1	-3,0
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	118,6	139,2	20,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 0,9 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 17,3 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 28,1 % ga o'shish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 24,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 30,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 40,2 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,8 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,2 % (2020- yil yanvar-sentabr oylarining mos davriga nisbatan 6,7 % ga o'sgan) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 21,5 % ni shuningdek, Chilonzor tumani 12,4 % ni, Olmazor tumani 10,3 % ni, Bektemir tumani 10,1 % ni, Sirg'ali tumani 9,3 % ni hamda Uchtepa tumani 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (169,5 %), Chilonzor (160,7 %), Bektemir (134,7 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (132,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	24 254,9	100,0	130,1
Uchtepa	2 145,4	8,8	108,4
Bektemir	2 440,7	10,1	134,7
Yunusobod	1 055,5	4,4	105,5
Mirzo Ulug'bek	1 262,5	5,2	121,6
Mirobod	1 638,5	6,8	121,1
Shayxontohur	530,8	2,2	81,8
Olmazor	2 500,3	10,3	125,7
Sirg'ali	2 247,6	9,3	112,1
Yakkasaroy	1 369,2	5,6	132,0
Yashnobod	5 213,6	21,5	169,5
Yangihayot	841,1	3,5	101,8
Chilonzor	3 009,5	12,4	160,7

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 21,5 %, shuningdek, Chilonzor 10,3 % ni, Bektemir tumani 10,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (168,6 %), Bektemir (145,0 %), Yangihayot (141,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	8 013,5	100,0	115,1
Uchtepa	503,0	6,3	99,7
Bektemir	2 050,4	25,6	145,0
Yunusobod	483,9	6,0	106,1
Mirzo Ulug'bek	253,9	3,2	95,5
Mirobod	215,9	2,7	93,2
Shayxontohur	166,7	2,1	74,1
Olmazor	1 024,3	12,8	107,2
Sirg'ali	1 072,0	13,4	105,2
Yakkasaroy	476,4	5,9	168,6
Yashnobod	670,4	8,4	96,0
Yangihayot	357,8	4,5	141,7
Chilonzor	738,8	9,2	112,9



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	15 222,0	100,0	142,0
Uchtepa	1 642,4	10,8	111,4
Bektemir	389,0	2,6	98,2
Yunusobod	498,8	3,3	104,7
Mirzo Ulug'bek	1 008,5	6,6	130,6
Mirobod	1 422,6	9,3	126,9
Shayxontohur	306,0	2,0	85,5
Olmazor	1 476,0	9,7	142,8
Sirg'ali	1 088,4	7,1	116,9
Yakkasaroy	892,5	5,9	118,3
Yashnobod	3 749,0	24,6	231,8
Yangihayot	483,3	3,2	84,2
Chilonzor	2 265,6	14,9	186,7

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 24,6 % ni, shuningdek, Chilonzor 14,9 % ni, Uchtepa 10,8 % ni, Olmazor 9,7 % ni, Mirobod 9,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod 231,8 %, Chilonzor (186,7 %), Mirzo Ulug'bek (130,6 %), Mirobod (126,9 %) tumanlarida qayd etildi.



**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2021- yil yanvar-sentabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	60 285,2	113,8
Uchtepa	3 881,6	106,1
Bektemir	4 250,5	106,4
Yunusobod	3 237,0	98,4
Mirzo Ulug'bek	3 691,6	100,2
Mirobod	4 773,8	104,6
Shayxontohur	3 752,0	116,6
Olmazor	4 045,5	112,8
Sirg'ali	4 521,5	114,8
Yakkasaroy	3 630,7	116,5
Yashnobod	16 853,0	114,8
Yangihayot	1 978,9	105,5
Chilonzor	5 669,1	117,6



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida kamayish kuzatilmadi, lekin Yunusobod (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 85,3 %), Mirzo Ulug'bek (98,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (169,5 %), Chilonzor (160,7 %), Bektemir (134,7 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (132,0 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 28,0 %), Chilonzor (9,4 %), Mirobod (7,9 %), Sirg'ali (7,5 %) hamda Bektemir (7,1 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (3,3 %) hamda Yunusobod (5,4 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021-yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 21,1 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,7 %), Yunusobod tumanida (55,1 %), Sirg'ali (51,1 %), Chilonzor tumanida (50,7 %), Yangiheyot (46,6 %), Mirzo Ulug'bek (44,8 %), Yakkasaroy (41,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (16,3 %), Shayxontohur (20,6 %) va Mirobod (21,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,9 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,2 %) Olmazor tumaniga, 2,1 mingtasi (12,2 %) Chilonzor tumaniga, 2,0 mingtasi (11,7 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-sentabr oylarida shaharda 1 640 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 184 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 11,2 %) Chilonzor tumanida, 174 tasi (10,6 %) Olmazor tumanida, 166 tasi (10,1 %) Shayxontohur tumanida, 160 tasi (9,8 %) Uchtepa tumanida, 159 tasi (9,7 %) Yunusobod tumanida, hamda 153 tasi (9,3 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 234 ta), Chilonzor (2 064 ta), Uchtepa (1 971 ta), Yunusobod (1 845 ta) hamda Shayxontohur (1 511 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 oktabr holatiga ko'ra)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 oktabr holatiga ko'ra)



2021-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (542 ta), Yangihayot (608 ta), Mirobod (974 ta), Sirg'ali (1 058 ta), Yakkasaroy (1 296 ta), Yashnobod (1 367 ta) tumanlarida qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi
(2021-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra)

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 348 ta loyiha bo'yicha 6 767,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 116,5 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2021-yil yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 2446 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2020-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 1,5 martaga oshdi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2020-yil yanvar-sentabr	2021-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	204	348
Korxonalar soni, birlik	78	112
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm"	3 535,6	6 767,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar"	46,4	116,5
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	513	2446

Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16